



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 19-sentabr, seshanba,
111 (23.832)-son

**KUN
HIKMATI**

Oliy
ma'lumotlarning
barchasi ham ziyoli
bo'lavermaydi.
Fikrini gapirib, yoza
oladiganlarga haqiqiy
ziyodir

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov ke-cha pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazida maktab ta'limi tizimi vakillari bilan uchrashdi. Uchrashuvda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarga javoban viloyatda bajarilgan ishlar tahlil qilindi.

Maktabdagi muammolarga yechim izlandi



Tanqidiy-tahliliy ruhda o'tkazilgan yig'ilishda maktablarda ta'lim sifatini yaxshilash, pedagoglar malakasini oshirish, shuningdek, tarbiyaviy masalalar bo'yicha yo'l qo'yilgan kamchiliklar tanqid ostiga olindi. Masalan, pedagoglar malakasini oshirishda davomat pastligi aytiladi. Aniqlanishicha, ayni paytda ko'pchilik pedagoglar turli sabablarga ko'ra onlayn tarzda malaka oshirishni ma'qul ko'rayotgan ekan. Shuning uchun an'anaviy tarzda malaka oshirishga kelayotgan pedagoglar soni sezilarli darajada kamaygan.



Bundan tashqari, korrupsiyaning oldini olish maqsadida malaka oshirayotgan pedagoglarga baholash tizimi joriy etilmayotgani, bu esa ayrim pedagoglarning malaka oshirish majburiyatini astoydil his etmayotgani, shu sababli tizimda yangicha islohotlarni hayotga joriy etish zarurligi, bu borada takliflar ishlab chiqish vazifasi berildi.

Uchrashuvda maktab ta'limi bilan bog'liq og'riqli masalalarga yechim axtarildi.

Samarqandda 16-17-sentabr kunlari sportning triatlon turi bo'yicha "Challenge Samarqand" xalqaro turniri hamda O'zbekiston chempionati bellashuvlari o'tkazildi.

"Challenge Family" xalqaro brendi ostidagi triatlon musobaqalari Samarqand turizm markazidagi "Silk Road Samarqand" xalqaro sayyohlik majmuasida start oldi.

Unda Buyuk Britaniya, AQSH, Germaniya, Italiya, Janubiy Afrika Respublikasi, Xitoy, Saudiya Arabistoni kabi dunyoning 35 davlatidan mohir sport ustalari g'oliblik uchun kurash olib bordi.

Ushbu musobaqalar doirasida O'zbekiston chempionati tashkil etilgani jahon sport maydonlarida kechadigan chempionatlarda yurtimiz sharafiga himoya qiladigan mahoratli sportchilarni aniqlab berdi, dedi viloyat yoshlar siyosati va sport boshqarmasi boshlig'i Shuhrat Ro'ziyev. Birinchi kungi bahslarda yurtimizning eng kuchli atletlari o'zaro kurash olib borishdi. Ular 700 metr masofaga suzish, 19 kilometrga velosiped haydash va 5 kilometrluk yugurish bosqichlaridan o'tdi.

Musobaqaning birinchi kunida o'tkazilgan bahslarda Aleksandr Kurishov, Arslon Tursunov, Yegor Yegorov, Alina Hakimova, Irina Jaludina, Dilnora Xolnizoyeva g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Xalqaro triatlon musobaqasining ikkinchi kuni ham qiziqarli kurash-

"CHALLENGE SAMARKAND" YURTIMIZNI DUNYOGA TANITDI



larga boy bo'ldi. Unda ikki ming nafarga yaqin professional sportchi ochiq havzada 1,9 kilometrga suzgan bo'lsa, "Silk Road Samarqand" majmuasi hududida 21,5 kilometrga yugurishdi. 86 kilometr masofani o'z ichiga olgan velosport bo'yicha poygalar "Silk Road Samarqand" majmuasidan boshlanib, Samarqand shahri ko'chalari bo'ylab davom etdi.

Musobaqa yakuniga ko'ra, erkaklar o'rtasidagi bellashuvda germaniyalik Frederix Fank birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Ikkinchi va uchinchi o'rinlar avstraliyalik Aron Royle hamda portugaliyalik Filipe Azevedoga nasib etdi. Ayollar bahsida peshqadamlikni Avstraliyadan kelgan Elliye Saltous egalladi. Keyingi o'rinlarni britaniyalik Emma Plant Broune va

italiyalik Margiye Santimari qo'lga kiritdi.

Musobaqaning turli yo'nalishlarida g'olib va sovrindorlar aniqlanib, ularga mukofotlar topshirildi.

"Challenge Samarqand" xalqaro turnirida O'zbekiston triatlon federatsiyasi rahbari V.Mahmudov, viloyat hokimi E.Turdimov ishtirok etdi.

Baxtiyor MUSTANOV.

INDALLOSINI AYTGANDA...

Sharofiddin TO'LAGANOV,
siyosiy sharhlovchi, jurnalist:

- Iste'molchilarga shunchaki axborot emas, balki tahliliy maqolalar, eshittirishlar, ko'rsatuvlar kerak. Oddiy axborot "divanga yotib olgan analitiklar"ning turli talqinlariga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida, hukumatga ishonchsizlikni ham keltirib chiqaradi. Ya'ni, mafkurada, ma'naviyatda, axborot siyosatida bo'shliq bo'lmasligi, biror bir davlatning ommaviy axborot vositasi boshqa bir davlat OAV ta'siriga tushib qolmasligi lozim.



REGISTON BUNYODKORI HAQIDA SPEKTAKL YARATILDI



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, adib Farmon Toshev qalamiga mansub "Yalangto'sh Bahodir" dramasi viloyat musiqali drama teatri-da sahnalashtirildi. Ilk bor sahna yuzini ko'rgan mazkur asar tarixchilar, ijodkorlar, teatr muxlislari tomonidan iliq kutib olindi.

- Bahodir Yalangto'shning shaxsiyati, tarixda tutgan o'rnini o'rganish va jamoatchilikka yetkazish bugun oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biri, - deydi taniqli olim Komilxon Kattayev. - Sarkarda haqida xalq orasida ko'plab rivoyatlar, afsonalar to'qilgan. Ammo O'zbekiston, xususan, Samarqand tarixida muhim o'rin egallagan bunday buyuk shaxs faoliyatiga doir

tadqiqotlar ancha kam. Uning siyosiy faoliyati bilan bir qatorda madaniyatga homiylik qilgani ham sarkarda faoliyatini o'rganishga turki beradi. Ushbu spektaklda Yalangto'sh Bahodir hayoti yorqin buyoqlarda aks etgan bo'lib, yoshlarimizga hali nomlari yaxshi tanish bo'lmagan ulug' ajdodimizni tanitishda muhim ahamiyatga ega.

Asar voqealari 1619-1640-yillarni o'z ichiga oladi. Aynan shu yillar davomida Yalangto'sh Bahodir Samarqandda ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan. Xususan, Registon maydonida Mirzo Ulug'bek qurdirgan madrasaga uyg'un Sherdor va Tillakori madrasalarini bunyod etgan.

- Bahodir Yalangto'sh haqida ayrim qahramonlik hikoyalarini eshitganman, ammo uning biz doim faxrlanadigan Registon me'mori ekanidan bexabar edim, - deydi yosh tomoshabinlardan biri Jo'shqin Narzullayev. - U Amir Temur, Mirzo Ulug'bek va Zahiriddin Bobur kabi tarixiy shaxslar darajasida tilga olsa, arzigulik ajdodlarimizdan ekan.

Iste'dodli rejissyor G'ofur Mardonov sahnalashtirgan spektaklda Bahodir Yalangto'sh qudratli sarkarda, bunyodkor hokim, adolatli rahbar, uddaburon davlat arbobi sifatida yorqin namoyon bo'lgan. Teatr aktyorlari ushbu tarixiy spektaklda rollarni mahorat bilan ijro etib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.

Spektakl premerasida viloyat hokimi E.Turdimov va viloyatdagi boshqarma va idoralar rahbarlari, viloyat faollari ishtirok etdi.

S.MARDIYEV.

Kun mavzusi

Yo'llardagi sun'iy to'siqlarni KIM NAZORAT QILADI?

Anglagan bo'lsangiz, gap yo'llarda avtomobil tezligini kamaytirishga xizmat qiluvchi sun'iy do'ngliklar haqida boryapti. To'g'ri, ayrim aholi gavjum maskanlar, yo'lining ko'p kesib o'tiladigan joylari, maktab, bog'cha, kollej yaqinidagi ko'chalarda bunday do'ngliklar kerakdir. Lekin bu yo'l harakati xavfsizligi talabiga mos kelishi, xususan, maxsus qoplama bo'lishi va belgilangan tartibda o'rnatilishi lozim. Ya'ni, o'zboshimchalik bilan asfalt yo'l ustida do'nglik hosil qilish hech bir qoidaga to'g'ri kelmaydi.



Yo'l harakati qoidalari yangi tahrirda qabul qilinib, unda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan avtomobil yo'l qismiga o'zboshimchalik bilan sun'iy do'ngliklar o'rnatish taqiqlanganda haydovchilar bundan mamnun bo'lishgandi. Ammo kuzatuvlar bu qoidalar qog'ozda qolib ketgani, amalda deyarli hech nima o'zgarmaganligini ko'rsatmoqda.

Isbot deysizmi, marhamat, ko'chalimizni aylaning. Avtoulug'ingizda markaziy ko'chalardan burilgan zahotingiz biror "g'ov"ga duch kelasiz. Ayniqsa, shahar va unga tutash hududlarda yo'lga sun'iy do'nglik qurish "urf"ga aylangan. Mahallalarning ichki ko'chalari-ku, ularsiz tasavvur qilish qiyin bo'lib qoldi. Xo'sh, bu yerlarda qonun ishlamaydimi?

- Bulung'ur tumani markazidan Kil-don mahallasiga ketayotib, asfalt rangi bilan bir xil bo'lgani bois ko'chaga yotqizilgan sun'iy do'nglikni ko'rmay qoldik, - deydi fuqarolardan biri. - Mashina ham, o'zimiz ham shikastlandik. Qiziq, piyodalar o'tishi ehtimoli

kam bo'lgan serqatnov, tuman markazi bilan uning asosiy mahallalarini bog'lab turuvchi katta ko'chaga to'siq nega kerak? Xo'p, o'rnatilsan, ungacha ogohlantiruvchi belgisi yo'yash kerak emasmi?

Darhaqiqat, ko'chalarda bu sun'iy to'siqlardan ogohlantiruvchi belgilarni deyarli uchratmaysiz. Holbuki, sun'iy do'nglik belgilangan tartibda o'rnatilgan bo'lsa, ulargacha "Sun'iy yo'l notekisligi" ogohlantiruvchi belgisi yoki "Sun'iy notekislik" qo'shimcha axborot belgilari bo'lishi kerak. Agar ular bo'lmasa, mashinaga, qolaversa, haydovchi va yo'lovchi salomatligiga yetkazilgan zararni kim qoplaydi?

Do'ngliklarni o'rnatishdan maqsad tezlikni cheklash va og'ir oqibatli yo'l-transport hodisalarining oldini olishdan iborat. Buni bilamiz. Ammo uni o'rnatishda ham tartib, qoida bo'lishi kerak emasmi? Xullas, savollar ko'p. Mas'ullardan bu masalada izoh kutib qolamiz.

Asqar BAROTOV.

Tuman hokimi Sherzod Rahmonov joriy yil yakunigacha mo'ljallangan ishlar haqida jamoatchilikka hisobot berarkan, bu ish qanday amalga oshirilishi bilan bo'lishdi. U xorijda yurgan ayrim tumandoshlari bilan shaxsan gaplashganini bildirdi. Shuningdek, tuman hududidan xitoyliklar bilan hamkorlikda oltin qazib olinishini ham qayd etdi.

Sh.Rahmonov o'ziga birlashtirilgan 1-sektor hududida yashovchi 3,2 ming kishi xorij mamlakatlarida mehnat qilayotganini ta'kidlab, tahlil qilganida Mustaqillik mahallasidan xorijga ishlash uchun chiqib ketgan 199 nafar fuqaroning 158 nafari yoki 79 foizi mahallaning Oytamg'ali qishlog'idan ekanligi ma'lum bo'lganini aytdi. Aytishicha, to'rt kun oldin qishloqda chetga ketganlarning oilasi bilan uchrashib, Rossiya Federatsiyasi Rostov viloyatida qog'oz sexida ishlayotgan 35 nafar vatandoshlarimiz bilan video aloqa orqali gaplashgan. Ular uylariga o'zlarining xarajatlaridan orttirib, 4 million so'm atrofida mablag' yuborayotgan ekan.

Qishloqqa 3 kilometr masofada xitoyliklar investitsiyasi bilan ishga tushirilayotgan yog'ochni qayta ishlash sexi birinchi bosqichda oyiga 3 milliondan 6 million so'mgacha oylik evaziga 100 nafar ishchi qabul qilayotganini, hokim yordamchisi orqali 1,2 milliard so'm kredit yoki massivda 30 sotixdan, jami 42 gektar yer berilayotganini tushuntirgan. Natijada 20 nafarga yaqin fuqaro kuz faslidayoq Vatanga

XORIJDA MEHNAT QILAYOTGAN NARPAYLIKLAR OILASI BAG'RIGA QAYTADI



qaytishini bildirgan.

2023-2024-yillarda sektor hududida 264 million dollarlik 87 ta loyiha amalga oshiriladi. Joriy yil yakunigacha esa 21,2 million dollarlik 70 ta loyiha foydalanishga topshirilib, 1803 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Umuman, hisob-kitoblarga ko'ra, yil yakuniga qadar yana 3,1 ming nafar (shundan 1,3 ming nafar ishsiz, qaytishi kutilayotgan 650 nafar migrantlar, 1,2 ming nafar mehnat bozoriga kirib keluvchilar) ishsiz bandligini ta'minlash va qariyb 2,5 ming fuqaroni kambag'allikdan chiqarish vazifasi turibdi. Shu bois kelayotgan to'rt oyda 3,4 mingta

ish o'rni yaratish maqsad qilinmoqda. Jumladan, qiymati 19 million dollarlik 36 ta loyiha foydalanishga topshirilishi rejalashtirilib, 1143 ta ish o'rni yaratiladi.

Misol uchun, "ZHONGGUO HUAXU VOOD INDUSTRY" xorijiy korxonasi tomonidan qiymati 6,5 million dollarlik faner hamda mebel uchun akril ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirilib, 80 ta ish o'rni yaratiladi. Tuman hududidan o'tuvchi M-37 xalqaro avtomagistrali yoqasida o'ndan ortiq savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish imkoniyati mavjud.

Tumanning barcha imkoniyat va xazinalari tah-

lil qilinib, belgilab olingan investitsiya rejasiga qayta ko'rib chiqilgan va qiymati 100,1 million dollarlik 7 ta loyiha shakllantirilgan.

Dastlabki geologiya qidiruv natijalariga ko'ra, tumanda zaxirasi 10 tonna bo'lgan oltin koni, 7,9 million metr kub g'isht va kafel, 274 million tonna sement xomashyosi, 37,5 million tonna keramzit xomashyosi xazinalari mavjud. Ushbu xazinalardan oqilona foydalangan holda yirik xorijiy kompaniyalarni tumanga jalb qilish hisobiga 1000 dan ortiq ish o'rnlari yaratish mumkin. Misol uchun, "Grand asian copper industry" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan Xitoyning "Sichuan Road and Bridge Group" Co.LTD kompaniyasi bilan hamkorlikda oltin qazib olish loyihasida 12 million dollar xorijiy investitsiya o'zlashtirish rejalashtirilgan.

Hisobot davomida hokim ko'pchilikni qiynab kelgan muammolarga ham e'tibor qaratdi. Jumladan, aholiga qulaylik yaratish maqsadida 18 kilometr yo'llar asfalt, 17 kilometr loy ko'chalar shag'alashtirilgani va yil yakuniga qadar 9 kilometr yo'llarni asfalt qilish, 18 kilometr ichki yo'llarning shag'alashtirilishi aytiladi.

Yana bir masala, tumandagi 44 ming elektr energiyasi iste'molchilariga 2022 yilda 476 million kWh soat elektr energiyasi yetkazib berilgan va 41 million kWh defitsit kuzatilgan. Joriy yilda defitsitni kamaytirish maqsadida 2,2 MW bo'lgan quyosh panellari hamda 4,2 ming litr hajmli geliokollektorlar o'rnatiladi. Bu bilan yil yakuniga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari orqali 4 million kWh soat defitsit qoplanadi.



KO'CHMAS MULKKA BO'LGAN HUQUQNI DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZISH TARTIBI QANDAY?

Mulk daxlsizligi har kimning o'z boyliklariga egalik qilish, foydalanish va boshqarish huquqiga ega ekanligini anglatadi. Bu fuqarolik mas'uliyatining oshishi, davlat oldida barchaning tengligini ta'minlovchi muhim omildir.

Bu borada ko'chmas mulkning kadastr idoralaridan davlat ro'yxatidan o'tganligi muhim ahamiyatga ega. Sababi, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish — yuridik va jismoniy shaxslarning ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlari yuzaga kelganligi, boshqa shaxsga o'tganligi, cheklanganligi va bekor qilinganligi faktining davlat tomonidan tan olinishini bildiradi.

Xususan, joriy yilning o'tgan sakkiz oyida viloyatimiz hududida joylashgan ko'chmas mulklarini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida Davlat kadastrlari palatasining Samarqand viloyat boshqarmasiga Davlat xizmatlari markazlari va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali hamda notariuslar orqali yuridik va jismoniy shaxslar nomidan 56 ming 423 ta buyurtma kelib tushgan bo'lib, shundan 40 ming 192 ta buyurtma ijobiy hal etilgan. 13 ming 606 ta buyurtma rad qilingan va 2625 ta buyurtma uchun o'rnatilgan tartibda to'lov shakllangan bo'lib, hozirgi kunga qadar to'lovi kutilmoqda.

Bundan tashqari, 2020-yildagi 594 ta buyurtma, 2021-yildagi 966 ta buyurtma, 2022-yildagi 1350 ta buyurtma to'lovi amalga oshirilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi qarori bilan 2019-yil 1-sentabrdan boshlab notariyal harakatlar asosida vujudga keladigan Toshkent shahrida joylashgan ko'chmas mulkka, 2020-yil 1-yanvardan boshlab esa Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda joylashgan ko'chmas mulkka nisbatan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar haqidagi ma'lumotlar reestriga faqat notariusning talabnomasiga asosan elektron shakldagi kadastr pasporti tayyorlanganidan keyin notari-

uslar tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda huquq egasini o'zgartirish shaklida kiritiladi va bir vaqtning o'zida reestrda ko'chirma berilishi belgilangan. Yuqorida qayd etilgan to'lovi kechikayotgan holatlarning deyarli barchasi viloyatimizdagi notari-uslar orqali kelgan arizalar bilan kuzatilmog'ida.

Bu to'lovi kutilayotgan buyurtmalarining to'lovi o'z vaqtida amalga oshirilmasligi natijasida ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish ishlari kechikishiga va bu o'z navbatida ko'chmas mulk egasiga va bir qancha davlat idoralariga bir qator noqulayliklarni yuzaga keltiradi. Sababi, to'lov amalga oshirilmagandan so'ng yuridik va jismoniy shaxslarning ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlari yuzaga kelganligi, boshqa shaxsga o'tganligi, cheklanganligi va bekor qilinganligi kadastr idorasidan rasman davlat ro'yxatidan o'tmaydi va natijada "Ko'chmas mulk obyekti bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida Davlat Reestrda ko'chirma" berilmaydi. Bu o'z navbatida, ko'chmas mulkka oid ma'lumotlar ko'chmas mulkning eski egasi nomida turadi va ushbu ko'chmas mulkka taalluqli har qanday soliq to'lovlar va ko'chmas mulkning avvalgi egasiga sud, prokuratura, IIB, majburiy ijro byurosi va notariuslar tomonidan qo'llaniladigan cheklovlar, taqiqlar soliq, IIB, majburiy ijro byurosi va notariuslar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri avtomatik ravishda integratsion elektron tizim orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, boshqa vakolatli organlarning

tegishli ko'rsatma xatiga asosan bajariladi.

Bu masalaning yana bir og'riqli tomoni, agar bugungi kunda "to'lovi kutilmoqda" bo'lib turgan buyurtmalarni bekor qilib, yangidan buyurtma qilish talab etiladigan bo'lsa, to'lovi kutilayotgan buyurtmalarni 2020-yildan boshlab inobatga oladigan bo'lsak, o'tgan yillar davomida respublika-mizda oylik ish haqlari bir necha bor oshirilganligi, bazaviy hisoblash miqdori ham o'zgarganligi sababli to'lanishi lozim bo'lgan summa oshishiga olib keladi.

Kadastr sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarga ko'ra, ko'chmas mulk obyekti mulkdorlari yoxud ushbu obyekti bo'yicha ashyoviy huquqlar egalari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning vakolatli vakillari ko'chmas mulk obyekti bo'lgan mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar vujudga kelganda, boshqa shaxsga o'tganda, cheklanganda yoki bekor bo'lganda yoxud ko'chmas mulk obyekti bo'lgan mulk huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun Davlat xizmatlari markazlariga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali, garov xati rasmiylashtirilganda esa ko'chmas mulk obyekti bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organga murojaat qilishlari shartligi nazarda tutilgan.

Shu bois joriy yilning 1-martidan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi O'RQ-803-sonli Qonuniga asosan, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun haq to'lanmagan bo'lsa, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish rad etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yurtdoshlarimizdan bu masalaga alohida e'tibor qaratishlarini so'raymiz.

Azamat NISHONOV,
Davlat kadastrlari palatasining Samarqand viloyat boshqarmasi jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha bosh mutaxassisi.

PAYARIQDA ICHIMLIK SUVI MUAMMOSI QACHON HAL BO'LADI?

Ichimlik suvi muammosi Payariq tumani hamda yechimini kutib turgan asosiy masala hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, tumanda istiqomat qilayotgan qariyb 250 mingga yaqin aholining 64,5 foizi markazlashtirilgan ichimlik suvi bilan ta'minlangan ekan. Qolganlari esa quduq, bosma kran yoki tashib keltiriladigan suvdan iste'mol qiladi.



Tumanda markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanayotgan mahalla va qishloqlar ham talaygina. Birgina Chelak shaharchasida aholidan tushgan murojaatlarga asosan 2022-2023-yillar tegishli dasturlarga ichimlik suv inshooti rekonstruksiyasi hamda 39,1 kilometr suv tarmog'i tortish kiritilgan bo'lib, ayni paytda qurilish-montaj ishlari olib borilmoqda.

Joriy yil yakunigacha shaharchada istiqomat qiluvchi qariyb 8 ming nafar aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanishi ko'zda tutilgan, - deydi "Samarqandsuvta'minot" MCHJ tuman filiali boshlig'i Husniddin Sayfiyev. - To'hirshayx mahallasida joylashgan toza ichimlik suvi inshooti ta'mirdan chiqarildi. Mustaqillik mahallasiga 5 kilo-

ning Yangiobod qishlog'idagi 2005-yilda qurilgan suv inshooti bir necha yildan buyon yaroqsiz ahvolda kelib qolgan edi. Qishloq aholi inshootini ishga tushirib berishlarini so'rab murojaat qilmagan idorasi qolmadi.

- Yigirma yil ilgari qurilgan artezian qudug'i 70 metr chuqurlikdan suv olib berardi, - deydi shu mahallada yashovchi Baxtiyor Ibriso. - Biroq quvonchimiz uzoqqa bormadi, suv qurib qoldi. Ming harakat qilsak-da, yo'lini topolmadik. Nihoyat, joriy yilda davlat dasturi asosida mablag' ajratilib, 170 metr chuqurlikdan suv oladigan yangi suv inshooti qurib berildi.

Tumandagi "27-son MKK stroy" MCHJ quruvchilari tomonidan barpo etilgan mazkur suv inshooti tarmoqlarining uzunligi 5,2 kilometr bo'lib, hududdagi 180 ta xonadonda istiqomat qiluvchi mingdan ziyod aholi yana toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi. Shuningdek, Boshcho'rosh mahallasidagi Oqtosh qishlog'ining 120 dan ziyod xonadoni ham homiylar yordamida qurilgan yangi suv inshooti va 2 kilometr ichimlik suvi tarmog'i orqali ichimlik suvidan bahramand bo'ldi. Sarbozor mahallasida ming metr, Darvishiy mahallasida 400 metr ichimlik suv tarmoqlari tortilib, aholi toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi.



metr yangi tarmoq tortilib, har bir xonadonga suv hisoblagich o'rnatildi. Shuningdek, Xartang qishlog'idagi mavjud oqova suvni tozalash inshootiga qo'shimcha yana 3 kilometr oqova tarmoqlari ulanib, foydalanishga topshirildi.

Oqtosh mahallasi tuman markazidan qariyb 20 kilometr uzoqda joylashgan. Mahalla-

Biroq tumandagi Guliston mahallasida 30 yildan buyon ichimlik suvi muammo bo'lib kelgan. Aholi o'rtasida, ayniqsa, bolalar orasida o'tkir bo'yarak yetishmovchiligi, gepatit A, V, S kabi kasalliklar tarqalgan. Ular ichimlik suvini qo'shni mahallalardan tashib kelishadi. Bir necha bor tuman va viloyat hokimliklariga, "Samarqand suv

ta'minot" MCHJ tuman bo'limiga qilingan murojaatlar kutilgan natijani bermadi.

- Ikki yildan buyon yer osti suvlari tobora pastga tushib ketyapti, - deydi Guliston mahallasida yashovchi Nizomiddin Mavlonov. - Ilgari "kachalka" ya'ni, bosma kranlardan 18 metr chuqurlikdan suv olib ichgan bo'lsak, endilikda 50 metrdan ham olib bo'lmay qoldi. Qishlog'imiz aholisi ichimlik suvi izlab sarson bo'lardi. Yaqinda viloyat hokimi tumanda o'tkazgan sayyor qabulda mazkur mahallaga ming metr masofadan ichimlik suvi tarmog'i tortib kelish topshirig'ini bergan edi. Quvurlarning ma'lum bir qismi olib kelindi, lekin montaj qilingani yo'q.

- Qishlog'imizga ichimlik suvi uchun artezian qudug'i kovlanib, suv minorasi o'rnatilganiga ikki yildan oshdi, - deydi Tepali qishlog'ida yashovchi Mutal Qilichev. - Undan chiqadigan texnik suvni ro'zg'orga ishlatish mumkin, lekin ichib bo'lmaydi. Qo'shni qishloqlarda yashovchi qarindosh-urug' va tanishlarning xonadonlariga borib, suv olib kelishga majbur bo'lyapmiz.

- Tepali qishlog'i "Obod qishloq" davlat dasturiga kirgan bo'lib, ichimlik suvi tarmoqlari qurish va ta'mirlash bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda, - deydi H.Sayfiyev. - Aholining ichimlik suvida bo'lgan talabini qondirish maqsadida haftasiga ikki marta suv yetkazib berilmoqda. Joriy yilning sentabr oyida yangi suv minorasi ishga tushirilib, barcha xonadonlar to'liq toza ichimlik suvi bilan ta'minlanadi.

Payariqlik suvsizlar imkon darajasida aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashga harakat qilmoqda. Biroq bu borada qilinayotgan murojaatlarning soniga qaraganda hali ularning ishlari ko'pga o'xshaydi. Bu esa, albatta, kattagina mablag' talab qiladi. Davlat dasturlari, mahalliy budget mablag'lari va homiylar yordamida muammolarni o'z muddatida yechishga harakat qilinsa, tuman aholisining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi ancha oshgan bo'lardi.

Dilmurod TO'XTAYEV.

Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i v.b. Shokir Sultonov va boshqarma mas'ul xodimlari Matbuot uyida tizimda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsion holatlarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan "Ochiq muloqot" o'tkazdi.

Boshqarma mas'ullarining ta'kidlashicha, joriy yilning o'tgan 8 oyi davomida viloyat maktabgacha va maktab ta'limi tizimida korrupsiya bilan bog'liq ikkita holat qayd etilgan. Jumladan, iyun oyida viloyat ichki ishlar boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbir davomida Samarqand shahridagi maktablardan birida direktor o'rinbosari vazifasida ishlovchi shaxs fuqaroga eksternat tartibida shahodatnoma olib berishni va'da qilib, 200 AQSH dollarini maktab hududida olayotgan vaqtda ashyoviy dalillar bilan ushlangan.

Boshqarma rahbariga ko'ra, bugungi kunda korrupsiya holatlarining oldini olish maqsadida tizim tashkilotlarida ochiqlik,

Sovg'a-salom tashkillashtirmang!

Viloyat MMTB rahbariyati ota-onalarga murojaat qildi



oshkoralik va shaffoflikni ta'minlashga e'tibor qaratilmoqda.

Ochiq muloqot ishtirokchilari to-

monidan ta'limda uchrayotgan korrupsiyaga bugungi kunda maktablarda 10-11-sinf o'quvchilarining oliy ta'lim-

ga kirish imtihonlariga tayyorlanish uchun o'quv markazlarida o'qish maqsadida maktab darslarida qatnashmas-

lik masalasida ota-onalar va maktab rahbari o'rtasidagi og'zaki kelishuvlar ham korrupsiya holatlariga sabab bo'layotgani ta'kidlandi.

- Yaqin yillargacha oliy ta'limga kirish testlarida maktab dasturini o'qishdan tashqari test variantlarini yodlamasdan biror natijaga erishib bo'lmadi, - dedi Sh.Sultonov. - Endilikda ushbu testlar butunlay maktab dasturlari asosida amalga oshirilyapti. Ya'ni, oliy o'quv yurtlariga kirishda maktabda olgan ta'limning o'zi yetarli bo'lishi uchun oliy ta'limga kirish imtihonlari testlari shu asosda tuzilyapti. Bu holatda, albatta, o'qituvchining o'z ustida ishlashi, o'quvchini qoniqtira oladigan bilim berishi ham muhim ahamiyatga ega.

Muloqot so'ngida Sh.Sultonov ota-onalarga murojaat qildi. "Aksariyat holatlarda maktablarda sovg'a berish tashabbusi aynan ota-onalar tomonidan chiqayotganligini inobatga olib, sizlardan maktab rahbarlari va o'qituvchilarga, tarbiyachilarga bayramlar va tug'ilgan kunlar bahonasida sovg'alar tashkil qilmaslikni, turli xil pul yig'imgirlariga yo'l qo'ymaslikni so'raymiz. O'qituvchi uchun shogirdining muvaffaqiyati eng katta sovg'a", deyiladi murojaatda.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Barcha yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el investorlari diqqatiga!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-102-son qaroriga muvofiq davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarning bo'sh turgan ko'chmas mulk obyektlari hamda ulushlari "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotilishi belgilangan. Shunga ko'ra, quyidagi davlat mulki obyektlari bo'yicha

SAVDOLAR E'LON QILINADI

T/r	Aktiv nomi	Balansda saqlovchi tashkilot nomi	Joylashgan manzili	Umumiy yer maydoni (ga.)	Bino va inshootlarning umumiy egallagan maydoni (kv.m.)	Savdolarga chiqarilgan boshlang'ich narxi (so'm)	Savdo sanasi	Ariza berishning oxirgi muddati
1	"Dinamo plus" PFK MCHJ ustav fondidagi 100 foiz davlat ulushi	"Dinamo plus" PFK MCHJ	Samarqand viloyati Samarqand shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 54-uy	0	0	745 041 000,0	16.10.2023 y.	16.10.2023 y.

Auksionga qatnashish tartibi to'g'risida:

Ushbu obyektlarni "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotib olish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi "Elektron onlayn auksionlarni tashkil etish" AJning "e-auksion.uz" sayt maydonchasida o'tkazilishi rejalashtirilgan. Savdolar qatnashish istagida bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar xatlov va baholash ishlari yakunlangandan keyin "e-auksion.uz" saytida qoidalar bilan tanishgan holda ro'yxatdan o'tib, savdo jarayonlarida qatnashishlari mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan jismoniy va yuridik shaxslar Davlat xizmatlari markazidan yoki "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali elektron raqamli imzo sertifikatlarini olishi mumkin.

Auksionda qatnashish uchun ariza berish:

Ro'yxatdan o'tgan va elektron raqamli imzoga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar "e-auksion.uz" saytida yaratilgan "Shaxsiy

kabinet"lari orqali kirib, o'tkaziladigan auksionlar ro'yxatidan o'ziga kerakli obyektни tanlashi va u haqida tegishli ma'lumotga ega bo'lishi mumkin. Auksion savdosiga qo'yilgan har bir mol-mulkka tizim o'ziga xos takrorlanmaydigan LOT raqami beradi.

Auksion savdosida qatnashmoqchi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar mulk haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lib, shu yerda ko'rsatilgan bank rekvizitlariga ko'rsatilgan zakalat mablag'ini to'lagan (to'lov hujjatida auksiondagi LOT raqami ko'rsatilishi kerak) holda auksion savdosida qatnashish uchun elektron tarzda ariza berishlari lozim.

Elektron tarzda ariza berish jarayonida ishtirokchi tomonidan elektron raqamli imzo bilan imzolangan holda ariza yuboriladi. Ariza elektron tarzda yuborilgach, ishtirokchining "Shaxsiy kabineti"ga ariza qabul qilinganligi yoki qaytarilganligi to'g'risida javob xabari keladi. Auksion savdosida qatnashish uchun ariza berish saytda ko'rsatilgan muddatda to'xtatiladi.

Auksion jarayoni:

Ishtirokchilar tomonidan savdoda qatnashish uchun ariza berilgandan so'ng, savdo boshlanadigan kunda (vaqtda) ishtirokchilar "e-auksion.uz" saytida maxsus login va parollarini tergan holda "Shaxsiy kabinet"iga kiradi va "Kabinet"ga o'tilgandan so'ng "Mening auksionlarim" bo'limidan qatnashmoqchi bo'lgan auksionini tanlaydi.

Shunda dastur tomonidan "Ishtirok etishni tasdiqlash" so'raladi, ishtirok etish tasdiqlangandan so'ng savdo jarayonida ishtirok etish mumkin bo'ladi (auksion savdo o'tkazish kuni soat 10:00 da boshlanadi).

Auksionda qatnashuvchilarga dastur tomonidan alohida tartib raqam beriladi.

Auksionning boshlanishi ishtirokchilardan LOTni boshlang'ich narxdan bitta qadamga oshirilgan narxda sotib olish bo'yicha taklifni tasdiqlashni so'rashdan boshlanadi. Agar taklif berilgandan keyin 10 daqiqa davomida auksion ishtirokchi-

laridan biri belgilangan qadamga oshirilgan LOT narxini tasdiqlasa, keyingi taklifni tasdiqlash uchun vaqt yana 10 daqiqaga uzaytiriladi.

Agar tasdiqlangan oxirgi taklifdan so'ng 10 daqiqa davomida keyingi oshirilgan LOT narxi bo'yicha taklif auksion ishtirokchilarining birortasi tomonidan tasdiqlanmasa, savdo auksion natijalari haqidagi bayonnomama avtomatik tarzda shakllantirilgan holda yakunlanadi. LOT narxi bo'yicha taklifni oxirgi tasdiqlagan ishtirokchi auksion g'olibi deb topiladi. Shundan so'ng ishtirokchigig'oliblik bayonnomasi topshiriladi yoki ishtirokchi bilan kelishgan holda pochta orqali yuboriladi.

Savdolar natijalari bo'yicha g'oliblik bayonnomasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasiga taqdim etilgan sanadan boshlab 10 kundan kechikmay oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

Auksionda ishtirok etgandan so'ng g'olib bo'lmagan ishtirokchilarga zakalat

pullari ishtirokchilarning elektron tarzda bergan arizalariga asosan ko'rsatilgan hisob raqamga qaytarib beriladi yoki keyingi savdolar qatnashish uchun o'tkazilishi mumkin.

Qo'shimcha ma'lumotlarni olish uchun manzil:

Samarqand shahri Kamol Otaturk ko'chasi, 21-uy. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi (Davlat aktivlarini sotishga tayyorlash va sotish ishlarini muvofiqlashtirish bo'limi).

Ma'lumot uchun telefonlar:

+99866-233-96-64,
+99899-447-17-70,

Faks: +99866-233-73-54.

Facebookdagi rasmiy sahifa:

Sam Dav Aktiv

Veb-sahifa: privatization.davaktiv.uz

Internet tarmog'idagi veb-sayt:

samarqand@davaktiv.uz

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI

2024-yil uchun tayanch doktorantura (PhD) va stajyor tadqiqotchilikka

TANLOV E'LON QILADI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 304-sonli qaroriga muvofiq, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali 2024-yil uchun tayanch doktorantura (PhD) va stajyor tadqiqotchilikka quyidagi ixtisosliklar bo'yicha tanlov e'lon qiladi:

T/r	Ixtisoslik shifri	Tayanch doktorantura (PhD) uchun ajratilgan kvota	Stajyor tadqiqotchilik uchun ajratilgan kvota
1	08.00.04 - Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti	1	1
2	08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit	1	-
3	08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit	1	1
4	08.00.15 - Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti	1	-
5	08.00.16 - Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya	1	1
Jami:		5	3

Tayanch doktorantura va stajyor tadqiqotchilikka quyidagi talablarga javob beradigan nomzodlar hujjat topshirishlari mumkin:

- magistr darajasiga yoki oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) ega bo'lganlar;
- B2 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat (tayanch doktorantlar uchun);
- falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy natijalar, shu jumladan, ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida bitta maqola hamda tegishli yo'nalishlar bo'yicha ikkitadan kam bo'lmagan ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ma'ruza tezislarga ega bo'lganlar;
- talabgorlarning tayanch mutaxassisligi oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutidagi ixtisoslik fan tarmog'iga muvofiq bo'lishi kerak.

Hujjatlar 2023-yil 15-sentabrdan 15-oktabrgacha qabul qilinadi.

Tayanch doktorantura va stajyor tadqiqotchilik-

ka talabgorlar <http://phd.mininnovation.uz> saytidan quyidagi hujjatlar bilan onlayn ro'yxatdan o'tadilar:

- ariza;
- qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki ID karta);
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- B2 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat (tayanch doktorantura uchun);
- oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplom yoki oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi (ilovasi bilan birgalikda);
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari (dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida bitta maqola hamda tegishli yo'nalishlar bo'yicha ikkitadan kam bo'lmagan ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ma'ruza tezislarga ega bo'lish talab etiladi);
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat sti-

pendiyasi sohiblari tegishli hujjat nusxasini taqdim etadilar.

Kirish imtihonlari 2023-yil 1-noyabrdan 25-noyabr oralig'ida o'tkaziladi va bu sana filial rasmiy saytida e'lon qilinadi.

Tayanch doktoranturada o'qish uchun talabgorlar mutaxassislik bo'yicha kirish imtihonlarini topshiradilar. Stajyor tadqiqotchilar mutaxassislik bo'yicha suhbatdan o'tkaziladi. Mutaxassislik fanidan imtihon tegishli ixtisoslik bo'yicha mutaxassislik fanlaridan tashkil topadi.

Batafsil ma'lumotlar www.sbt.sue.uz saytida mavjud.

Manzil: Samarqand shahri Professorlar ko'chasi, 51-uy. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi.

Murojaat uchun telefonlar:

+99890-602-04-92,
+99891-534-54-14.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Buzurkov Murod Subxanovichga (2014-yil 21-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Tursunov Toshpulotga (2019-yil 13-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Razikov Samiga (2018-yil 4-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Shevchenko Tatyana Anatolyevnaga (2020-yil 15-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Raxmatova Adolat Djabarovnaga (2021-yil 24-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda O'zbekiston xalq shoiri Omon Matjon tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan "Zamonaviy o'zbek she'riyatida Omon Matjon ijodining o'rni" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

OMON MATJON YOD ETILDI

Tadbirda adabiyotshunos olimlar, shoir va yozuvchilar, universitet o'qituvchilari va talabalar ishtirok etdi.

Konferensiyada O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari – taniqli shoir Salim Ashur, Shodi Otamurod hamda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Farmon Toshev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Xosiyat Bobomurodova, Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi rahbari Toshpo'lat Tugalov, Samarqand davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori Usmon Qobilov so'zga chiqib, Omon Matjonning hayoti va ijodiy merosi haqida ma'ruza qildi.

Samarqand davlat universitetining bitiruvchisi Omon Matjon bilan doim faxrlanganmiz, - deydi SamDU filologiya fakulteti dekani, professor Azamat Pardayev. - Omon Matjon o'zining badiiy yuksak she'r va dostonlari, dramatik asarlarida yurtimiz va xalqimizga, azaliy qadriyatlarimizga mehr va sadoqat tuyg'usini katta mahorat bilan tarannum etdi. Uning sermazzum asarlari xalqchilligi va hayotiyiligi bilan adabiyotimiz xazinasidan munosib o'rin egalladi.

Tadbirda shoirning farzandlari va yaqinlari qatnashib, uni yorqin xotiralar bilan yodga oldi.

Universitet qoshidagi "Shalola" ijodiy to'garagi a'zolari shoir ijodidan namunalar aytdi. San'atkorlar shoir she'rilariga bastalangan qo'shiqlardan ijro etdi. Tadbir yakunida ishtirokchilarga shoir kitoblari sovg'a qilindi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyati bo'limi.

Yulduz Ergasheva Qashqadaryo viloyatida birinchi fan doktori bo'lgan ayollardan. Hozirda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida kafedra mudiri sifatida faoliyat ko'rsatib kelayotgan Yulduz Alimovna 1985-yilda dastlab assistent, so'ng dotsent, kafedra mudiri bo'lgan.

Yulduz Alimovna O'zbekiston madaniyati tarixini Vatanimiz tarixshunosligida ilk marotaba yangi nazariy metodologik asosda o'rganagan. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix institutida doktoranturani tugatib, 1998-yilda "O'zbekiston madaniyati: holati, rivojlanish yo'nalishlari va muammolari (60-70-yillar)" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvafaqqiyatli himoya qildi.

2010-yil professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan.

Ilmiy ishda mavzu kompleks tahlil qilingan va mustabid tuzumning madaniy sohadagi siyosati asl mohiyati ochib berilgan. Madaniy soha-

Vohaning birinchi ayol fan doktori

dagi o'zgarishlar totalitar tuzum va mustaqillik davri ma'naviy-madaniy siyosatlarining retrospektiv-qiyosiy tahlillari ko'rsatilgan.

Hozirgacha olimaning O'zbekiston tarixi va madaniyatiga doir 3 ta darslik, 14 ta o'quv qo'llanma, 16 ta monografiya, 8 ta risolasi, 6 ta ma'ruzalar matni, 21 ta o'quv, o'quv-uslubiy qo'llanma, 50 ga yaqin xalqaro anjuman ma'ruzalari mavjud, 3 ta grant (loyiha) muallifidir.

Ilmiy maqolalari Xitoy, Turkiya, Germaniya, Rossiya, Bolgariya, Ukraina, Saudiya Arabistoni, Hindiston, Misr, Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqa xorijiy mamlakatlarning ilmiy jurnallarida chop etilgan. 2017-yil sentabr oyida Moska shahrida o'tkazilgan "Globalistika-2017" xalqaro kongressi doirasida UNESCO maktabida ijtimoiy fanlardan malaka oshirib, sertifikat bilan taqdirlangan.

Yulduz Ergasheva ilmiy rah-



barligida ikki nafar fan doktori, 19 ta fan nomzodi, falsafa doktorlari tayyorlandi.

Olima ilmiy-tadqiqot ishlarini o'quv jarayoni bilan chambarchas bog'liq holda olib boradi. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirishga ham o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda. Har yili

Hamkasb e'tirofi

kafedrada uning rahbarligi ostida O'zbekiston tarixining muammolari bo'yicha respublika va xalqaro konferensiyalar o'tkaziladi. Jumladan, shu paytgacha 13 ta respublika ilmiy konferensiyasi, 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya hamda 2 ta mintaqaviy ilmiy seminar tashkil etildi va 15 ta to'plamni chop ettirishga muvaffaq bo'ldi.

Yulduz Ergasheva 2012-yildan buyon Qashqadaryo "Olima ayollar" uyushmasiga ham rahbarlik qilib kelmoqda. Bir necha marta viloyat Kengashi deputatligiga saylanib, aholi muammolarini hal etishda jonbozlik ko'rsatgan.

U "Oliy ta'lim a'lochisi" va boshqa bir qator ko'krak nishonlari hamda 2020-yilda "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangan.

Ibratli oila bekasi, fidoyi, kamtarin inson Yulduz Alimovnani ustozlik va ilmiy ijodkorlik qobiliyatiga ega ziyolarning munosib vakili sifatida e'tirof etish mumkin.

Shokir G'AFFOROV,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori.

Hunarmandlar uchun imkoniyat

Shu yilning 21-23-sentabr kunlari Qo'qon shahrida II "Xalqaro hunarmandchilik festivali" o'tkaziladi.

Mazkur nufuzli tadbirga mohir hunarmandlar va iste'dodli yoshlarni jalb qilish maqsadida joylarda "Men Qo'qonga boraman" shiori ostida ikki bosqichdan iborat ko'rgazma va ko'rik-tanlovlar tashkil etilgan edi. Ularda viloyatimizdan 61 nafar usta-hunarmand festivalda ishtirok etish uchun yo'llanma oldi.

Festival bizga faoliyatimizni yanada kengaytirib, xalqaro maydonda tanilish uchun o'ziga xos imkoniyat, - deydi Samarqand tumanidan miniatyura va rang-tasvir ustasi Mansur Nurillayev. - Misol uchun, o'tgan safargi festivalda nafaqat mahalliy, balki Meksika, Hindiston, Shri-Lanka, Rossiya, Turkiya, Ispaniya singari o'nlab davlatlardan mohir ustalar ham ishtirok etishgandi. Jarayonda ular bilan tajriba almashdik, ijodiy yutuqlarimiz bilan o'rtoqlashdik. Shaxsan men Shri-Lanka, Hindiston va fransiyalik rassomlar bilan ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'ydim. Navbatdagi festivaldan ham umidlarim katta.

Festival doirasida Rishton tumanida "Xalqaro kulolchilik forumi" o'tkazilib, unda ilmiy-amaliy konferensiya, ko'rik-tanlov, taqdimot va namoyishlar, ko'rgazma-savdolar, teatrlashgan konsert-tomosha dasturlari, madaniy-ma'rifiy va targ'ibot-tashviqot tadbirlari, O'zbekistonning turli hududlariga xos bo'lgan kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, kashtachilik maktablarining mashhur xalq amaliy san'ati ustalari tomonidan mahorat darslari ham tashkil etilishi belgilangan.

- Restavratsiya o'ziga xos ilm, alohida malaka talab qiladi, - deydi Ali Yilmis. - Va eng muhimi, uni o'z vaqtida bajarish. Men Toshkentdagi ayrim qadimiy obidalarda ham bo'ldim. Mustamlaka davrida madaniy merosga vahshiyona munosabatda bo'lingan. Ta'mirlash ishlari ham restavratsiya talablari-ga bepisandlik bilan, oddiy ustalar tomonidan bajarilgan. Masalan, ayrim obidalarda sementdan foydalanilganini ko'rdim. Ma'lumki, sement o'ziga nam tortuvchi qurilish materiali. Oqibatda binoning barcha qismlari zararlangan. Menga aytishlaricha, bu ellik yoki yetmish yil avval yuz bergan. Ammo hozir bu xatolarni tuzatishning imkoni bor. Bizni qadim va buyuk Samarqandga restavratsiya ishlari-ga taklif qilishganidan minnatdorman. Albatta, bu o'rinda mahalliy restavratordarning tajribalaridan ham unumli foydalanish kerakligini aytishim lozim. Kuzatishimcha, Samarqanddagi mavjud qadimiy obidalarning ayrimlari ta'mirlalab holatga kelgan. Mahalliy rahbarlarning ta'kidlashicha, ularni ta'mirlashda UNESCOning ruxsati, talab va tavsiyalarini olish lozim ekan. Bizda bunday talab yo'q, Eronda ham. Ajdodlarimiz qurgan, o'zimiz-ga tegishli osori atiqalarni ta'mirlash uchun tashqaridan kimdir ruxsat berishini kutib o'tirish shart emas aslida. Turkiyada madaniy merosni asrash ilmiy ekspertiza kengashining xulosasi asosida zarur paytda restavratsiya ishlari bajariladi. Yana bir muhim jihatga e'tibor berish lozim. Masalan, biz turgan ushbu obida Amir Temur jome masjidi deyiladi. Demak, u o'z davrida qaysi maqsadda qurilgan bo'lsa, bugun ham shu vazifani bajarishi lozim. Masjid bo'lsa, masjid, madrasa bo'lsa, madrasa shaklida, albatta, ma'lum talablar asosida. Shundagina bugungi avlodlar oldida uning ahamiyati qadri oshadi, bu bilan ushbu qadimiy obidaning umri ham uzayadi.

Ilmiy-amaliy seminar-da viloyatimizdagi madaniy meros obyektlarida restavratsiya ishlari olib borgan mahalliy restavratordlar ham madaniy meros obyektlarida amalga oshirilgan ta'mirlash ishlari haqida ma'lumot berdi. Obidalarni ta'mirlashda asl holatni saqlab qolishga harakat qilinayotgani ta'kidlandi.

Sulaymon MARDIYEV.

Rang-barang Osiyo:
Osiyo kostyumlari

Xitoyning milliy ipak muzeyida shu nomdagi ko'rgazma ochildi. Unda Janubiy-Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mamlakatlarning madaniy meros namunalari namoyish etilmoqda.

"Osiyo" so'zi "quyosh chiqadigan joy" degan ma'noni anglatadi. Turli xil tabiiy muhit va ekologiyaga ega tog'lar, tekisliklar, orollar va botqoq yerlardan iborat Osiyo dunyodagi eng keng qit'adir. Shuningdek, mazkur qit'a qadimgi insoniyat tamadduni paydo bo'lgan muhim nuqta ham. Dajla va Frot, Amudaryo va Sirdaryo, Hind, Xuanxe va Yanszi kabi daryolar havzalarida paydo bo'lgan tamaddun beshiklarida qadim davrlardan buyon mingdan ortiq etnik guruhlar shakllangan va ular o'z navbatida rang-barang kiyimlarni ham yaratgan. Har bir etnik guruhning o'ziga xos xususiyatlari va kiyinish uslubi bor. Shu bilan birga, turli ijtimoiy-madaniy sharoitlarda Osiyo xalqlari orasida quruqlik va dengiz yo'li orqali kiyinish madaniyatlarining almashinuvi, o'zaro ta'siri yuz bergan. Ko'rgazma Xitoyning Xanchjou shahrida joriy yilning sentabr oyida ochiladigan XIX Osiyo o'yinlari munosabati bilan Xalqaro muzeylar kengashining Osiyo-Tinch okeani Ittifoqi (ICOM ASPAS) qo'llab-quvvatlashi bilan tashkil etildi.

Ko'rgazma geografik jihatdan beshta asosiy bo'limga: Sharqiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo, Markaziy Osiyo va G'arbiy Osiyo bo'limlariga bo'lingan. Unda Osiyoning XVIII-XX asrlarga oid bo'lgan an'anaviy kiyim-kechak san'ati bilan tanishish imkoni mavjud. Ko'rgazmada mamlakatimizdan Sa-

marqand davlat muzey qo'riqxonasi va O'zbekiston davlat san'at muzeyi o'z ashyolari bilan ishtirok etmoqda. O'rta Osiyoga bag'ishlangan bo'lim-da asosiy joyni Buyuk Ipak yo'lining markazi bo'lgan O'zbekistonga tegishli ashyolar egalladi. Ma'lumki, O'zbekiston 3 ming yillik davlatchilik tarixiga ega va qariyb 2 ming yil davomida Buyuk Ipak yo'lidagi savdoda asosiy rolni o'ynagan davlat hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Buyuk Ipak yo'lda joylashgan barcha mamlakatlar madaniyati namunalarining eng yaxshilarini o'zlashtirgan va natijada o'ziga xos noyob madaniyat shakllangan. Ushbu madaniyat namunalari hozirgi vaqtda yurtimizdagi 100 dan ortiq muzeylarda saqlanmoqda va namoyish etilmoqda.

Ko'rgazmaga jami 20 dona muzey ashyosi olib borildi. Ulardan 16 tasi Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi, 4 tasi O'zbekiston davlat san'at muzeyiga tegishli. Ular erkaklar va ayollar choponi, oyoq kiyimlari (maxsi), zargarlik buyumlaridan iborat. Ushbu ashyolar ko'rgazmaning ochilishiga tashrif buyurgan sayyohlarda katta qiziqish uyg'otdi va ular O'zbekiston madaniyati bilan yaqindan tanishish istagini bildiridilar. Ko'rgazma joriy yilning 12 noyabrigacha davom etadi.

Mahmudxon YUNUSOV,
Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi bosh muhofizi.

Ayrim obidalar restavratsiyasida sementdan foydalanilgan

Hozir bu xatolarni tuzatishning imkoni bor

Samarqand dunyo sayyohlari markaziga aylanadigan noyob me'moriy merosga ega. So'nggi yillarda yurtimizga sayyohlarni jalb etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, qadimiy obidalarni asl holida saqlash, ularni restavratsiya qilishda xorijlik mutaxassislar jalb etilayotgani bu boradagi ishlarning rivojiga turtki bo'ldi. Ammo shu bilan birga, ayrim holatlarda bu qadimiy binolarning tarixiy davri, restavratsiya talablariga e'tiborsizlik, o'rtamiyona restavratsiya qilinishi xalqimizning ko'p asrlik merosini xavf ostida qoldiryapti.



Samarqand shahridagi Amir Temur jome masjidida Madaniy meros agentligi tashabbusi bilan xorijlik restavratordlar ishtirokida o'tgazilgan seminarda ayni shu jihatlar tilga olindi.

- Avvalo, har bir narsani o'z nomi bilan atashni o'rganishimiz lozim, - deydi Madaniy meros agentligi direktori o'rinbosari Tursunali Qo'ziyev. - Biz turgan ushbu qadimiy obida mustamlaka davrining mafkurasi ta'sirida Bibixonim nomi bilan atala boshlangan. Xalq tilida ham bu nom ommalashdi. Ajablanarlisi, xorijlik sayyohlar bu manzilni o'z nomi bilan - Amir Temur jome masjidi deb so'rab keladi. Endi bunday xatolarni tuzatib borishimiz lozim. Mutasaddilar, mutaxassislar, ziyolilar uni o'z nomi bilan atay boshlasa, bu sekin-asta xalq tiliga ko'chadi, barchasi o'z o'rniga tushadi. Ko'pchilik ahamiyatsiz deb bilgan bu nar-

sa aslida juda muhim jihat. Asosiy mavzuga to'xtaladigan bo'lsam, Turkiya, Eron kabi davlatlar tarixiy, madaniy rivojlanishi, me'morchilik an'analari biz bilan eng yaqin mamlakat va xalqlar hisoblanadi. Shu sababdan ushbu davlatlardan mutaxassislarni ko'proq jalb qilyapmiz. Bugungi kunda Turkiya restavratsiya maktabi dunyodagi eng yaxshi maktablardan biri hisoblanadi.

Seminarda ishtirok etayotgan turkiyalik mutaxassis Ali Yilmis bu jabhada o'z yurtida olib borilayotgan restavratsiya ishlari, keyingi yillarda qayta tiklangan qadimiy obidalar haqida ma'lumot berdi. Xususan, Sivajko'k madrasasi, Oqsaroy shahrida XI asrda qurilgan Sultonxonim karvonsaroyi, Mehribon Sulton jomeisi shular jumlasidan. Xorijlik mutaxassis amalga oshirilgan ishlar bo'yicha o'z tajribalarini o'rtoqlashdi.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 405 nusxada chop etildi. Buyurtma 505. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

Sotuvda narxi kelishilgan holda

